

“Muzey – tarix ko’zgusi” nomli tadbir o’tkazildi

Fanlar akademiyasi O’zbekiston tarixi davlat muzeyida 18-may “Xalqaro muzeylar kuni” munosabati bilan “Muzey-tarix ko’zgusi” ma’naviy-ma’rifiy tadbir va “Tarix sahifalari” ko’rgazmasi tashkil etildi.



Tadbir doirasida O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi, Toshkent shahar “Barkamol avlod” bolalar ijodiyoti markazi hamda Yunusobod tumani 1-son bolalar va o’smirlar sport maktabi o’quvchilarining badiiy chiqishlari, “Sharq” nashriyoti bilan hamkorlikda kitoblar, Respublika “Hunarmandlar” uyushmasi vakillari, K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika rassomlik ixtisoslashgan maktabi o’quvchi va talabalari tomonidan yaratilgan tasviriy san’at, kulolchilik va kashtachilik bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etildi. Shuningdek, bu yerda barcha tashrif buyuruvchilarga hunarmandchilikning turli sohalari bo'yicha mahorat darslarida ishtirok etish imkoniyati yaratildi.





O'zbekistondagi Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi va O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi bilan hamkorlikda "Tarix sahifalari" ko'rgazmasi tashkillashtirildi. Ko'rgazmada ko'p millatli O'zbekiston xalqining front va front ortida ko'rsatgan jasorati bilan yaqindan tanishish, fashizmga qarshi janglarda fidoyilik ko'rsatgan insonlarning nomlari va jasoratlari namoyish etilgan fotosuratlar namoyish etildi.